# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 27-dekabr, № 277 (8620) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MDHNING NORASMIY SAMMITIDA ISHTIROK ETDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida MDHga a’zo davlatlar rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.**





Tadbirda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyan qatnashdi.

Uchrashuvda 2023-yilgi ko‘p tomonlama hamkorlikning asosiy yakunlari sarhisob qilindi va kelgusi yilga mo‘ljallangan ustuvor vazifalar ko‘rib chiqildi. MDH doirasida ko‘p qirrali munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda mamlakatimiz Hamdo‘stlikda faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston 20 dan ortiq tarmoq bo‘yicha hamkorlik organlariga hamda ustuvor soha va tarmoqlar bo‘yicha 24 ta muhim bitimga qo‘shildi.

MDH mamlakatlari kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha loyihalar portfeli 30 milliard dollardan oshdi va deyarli barcha tarmoqlarni qamrab olgan.

Davlatimiz rahbari MDH doirasidagi amaliy hamkorlikni tubdan kengaytirish va hamkorlikning amaldagi institutsional mexanizmlari samaradorligini oshirish zarurligini alohida qayd etdi.

Shu kuni Sankt-Peterburg shahridagi MDH norasmiy sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Joriy yilning 5-7-oktabr kunlari Rossiyaga amalga oshirilgan oliy darajali tashrif yakunida erishilgan kelishuvlarni ro‘yobga chiqarish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tovar ayirboshlashning o‘sish sur’atini saqlab qolish hamda istiqbolli kooperatsiya loyihalarini ilgari surish maqsadida yaqin idoralararo muvofiqlashuv va amaliy hamkorlikni, shu jumladan, ikki mamlakat hududlari darajasida ta’minlash muhimligi qayd etildi.

Mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

MDH norasmiy sammitining madaniy tadbirlar dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sankt-Peterburg shahrining saroy-bog‘ majmualari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston yetakchilari bilan birgalikda “Pavlovsk”, “Sarskoye selo” va “Petergof” muzey-qo‘riqxonalariga tashrif buyurdi.

XVIII-XIX asrlarda barpo etilgan ushbu tarixiy obidalar UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan, me’morchilik va bog‘chilik san’ati durdonalari sifatida tan olingan.

Tanishuv chog‘ida davlat rahbarlariga saroylar tarixi, ularning ichki bezagi va badiiy to‘plamlari to‘g‘risida batafsil so‘zlab berildi. Oliy martabali mehmonlar e’tiboriga musiqa va xalq og‘zaki ijodi jamoalarining chiqishlari havola etildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining amaliy tashrifi yakunlandi.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

**E’tirof**

## O‘zbekiston tashabbusi asosida qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi

**xalqaro hamjamiyat ko‘magida Markaziy Osiyo davlatlarining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha majburiyatlarini mustahkamlaydi**

*O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan bir ovozdan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo‘lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi ekspertlar hamjamiyati va mazkur tuzilmaning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari vakillari tomonidan yuqori baholanmoqda.*

*Rezolyutsiya qabul qilingandan so‘ng BMT Axborot xizmatining ushbu global hujjatning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag‘ishlangan tahliliy maqolasi chop etildi. Bundan tashqari, BMTning yuqori martabali vakillari ushbu muhim hujjat Bosh Assambleya tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilingani munosabati bilan O‘zbekiston Prezidenti va xalqiga o‘zlarining samimiy tabriklarini yo‘llashdi.*

➡ 4

Gabriela RAMOS:

## UNESCO O‘zbekiston bilan o‘z vakolatlari doirasida o‘rnatilgan hamkorlikdan faxrlanadi

*O‘zbekiston Prezidenti raisligida 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari xorijda respublikaning madaniy diplomatiyasini rivojlantirishda UNESCO bilan hamkorlikni yanada kengaytirishga alohida e’tibor qaratdi.*



Shuningdek, davlatimiz rahbari O‘zbekistonning 2023-yilda UNESCO bilan hamkorlikda erishilgan bir qator muhim yutuqlar, jumladan, ushbu tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini 2025-yilda Samarqand shahrida o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorga to‘xtalib o‘tdi.

Ta’kidlash joizki, joriy yilda UNESCO doirasida erishilgan muvaffaqiyatlar O‘zbekiston yetakchisining BMT institutlari bilan o‘zaro hamkorlikni kengaytirishga qaratayotgan yuqori e’tiborining amaliy ifodasi bo‘lib, buning samarasi o‘laroq mamlakatimizning UNESCO bilan aloqalari barcha sohada yuqori darajaga ko‘tarildi.

➡ 4

## MILLIY KOMISSIYA NIMA UCHUN QAYTA TUZILDI?

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qat’iy siyosiy irodasi tufayli “Yangi O‘zbekiston — xalqchil insonparvar davlat” g‘oyasi asosida davlat va jamiyatning huquqiy poydevorini mustahkamlash, bu jarayonlarda inson huquqlari tizimini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.*

**Farmon va ijro**

Ana shu islohotlarning muhimlaridan biri sifatida odam savdosi va majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha ko‘rilgan amaliy choralarni keltirib o‘tish mumkin.

Bu borada 2019-yilda Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha milliy komissiya tashkil etildi.

➡ 2

# YANGI O‘YG‘ONISH DAVRI

## POYDEVORINI YARATISHDA MUSTAHKAM TAYANCH

***Yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratishda mustahkam tayanch***

***Prezidentimiz raisligida shu yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi tarixiy tadbirlardan biri bo‘lib qolishiga shubha yo‘q. Unda davlatimiz rahbari ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat, san’at va ijod sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini muhokama qilib, kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.***

***Prezidentimiz yangi O‘zbekistonni bunyod etish, uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi keng ko‘lamli ishlarda aynan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada kengaytirishga urg‘u qaratayotgani bejiz emas. Binobarin, ma’naviy asoslarsiz, azaliy qadriyatlarsiz, ma’naviy-milliy ruhsiz hech bir davlat o‘zining yuksak maqsadlariga erisha olmaydi.***

**Nigoh**

### Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarda muhim bosqich

Shonli tariximizda buyuk ajdodlarimiz ijodi va ilmiy salohiyati tufayli ikki marta kuzatilgan Renessans hodisasining negiziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har safar iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-ruhiy rivojlanish uyg‘un kechganini ko‘ramiz.

Darhaqiqat, har bir xalq, avvalo, ma’naviy saviyasi, intellektual salohiyati, hamjihatligi bilan qudrat kasb etadi va bugungi murakkab sharoitda dunyo sahnidan o‘ziga munosib joy egallay oladi.

Nega bu masalalarga Yangi yil arafasida urg‘u berilib, ularga jamoatchilik e’tibori tortildi? Davlatimiz rahbarining yig‘ilishda bildirgan fikr-mulohazalari, ilgari surgan hayotbaxsh tashabbuslari, mutasaddilarga belgilab bergan vazifalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqimiz yangi orzu-umidlar, yangi rejalar bilan qadam qo‘yayotgan kelgusi yilda asosiy maqsad-muddaolarimizdan biri — xalqimizning ma’naviy yuksalishi, madaniy va ma’rifiy salohiyatining yanada kuchayishi, birdamligi, jipsligi, ruhiyati, irodasining toblanishi yangi bosqichga ko‘tariladi.

Afsuski, bugun biz bilimsizlik, loqaydlik, mas’uliyatni his etmaslik holatlariga iqtisodiyot sohasida ham, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, qo‘yingki, hayotimizning barcha jabhasida duch kelyapmiz va bu illat bamisoli qo‘l-oyog‘imizga kishan bo‘lib turibdi. Bu kishandan xalos bo‘lmasdan turib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan natijaga erishish mushkul.

Ma’lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik, ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, xudbinlik, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustomonlik bilan singdirilyapti. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba’zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo‘lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlari uchun kurashib yashash kerak. Buning uchun esa yurtimiz ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’naviyatda har doimgidanda kuchli bo‘lishi shart.

Davlatimiz rahbari buning uchun, avvalo, mustahkam iqtisodiy asoslar kerakligini ta’kidlab, shu borada amalga oshirilayotgan ishlarni keltirib o‘tdi. Ushbu iqtisodiy asos natijasida bu yil ijtimoiy sohaga eng ko‘p — 134 trillion so‘m mablag‘ ajratildi. Bu — 2016-yildagiga solishtirganda 5,6 barobar ziyod, demakdir.

➡ 3

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasida**

## MA’NAVIY HAYOTIMIZDA TUB ISLOHOTLAR PALLASI VA HUQUQIY MANFAATLAR KAFOLATI



*Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda dastlab o‘tgan haftada Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqida so‘nggi yillarda mamlakatimiz ma’naviy hayotida, ijod sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi hamda bu boradagi ustuvor vazifalar atroflicha muhokama qilinganiga alohida to‘xtalib o‘tildi. Ma’naviy hayotimizda yangi islohotlar davri boshlangani va bunda parlament, qo‘mitalar, fraksiyalar oldida turgan dolzarb vazifalar, ularning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashda deputatlar korpusi ham munosib hissa qo‘shishi kerakligiga urg‘u berildi. Shuningdek, inson huquq va manfaatlarini ta’minlashga oid bir qator qonun loyihalari ham mufassal ko‘rib chiqildi.*

➡ 2

# MILLIY KOMISSIYA NIMA UCHUN QAYTA TUZILDI?

1

Milliy komissiya tomonidan o‘tgan davr mobaynida odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish yo‘nalishida milliy qonunchilikni xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish, ushbu yo‘nalishlardagi mavjud muammolarni, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va tizimli hal etish borasida keng ko‘lamli ishlar ro‘yobga chiqarildi. Xususan, 40 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar imzolandi, Xalqaro mehnat tashkilotining 5 ta konvensiyasi hamda 1 ta protokoli ratifikatsiya qilindi.

Jumladan, bolalar mehnati va majburiy mehnat uchun jinoiy javobgarlik belgilandi, O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi, odam savdosidan jabrlangan yoki jabrlangan deb taxmin etilayotgan shaxslarni milliy darajada identifikatsiyalash va qayta yo‘naltirish tartibi belgilandi, odam savdosiga oid jinoyatlar uchun javobgarlik kuchaytirildi. Natijada bolalar mehnatiga to‘liq barham berildi, tizimli majburiy mehnat bartaraf qilindi.

Shu sa’y-harakatlar tufayli Xalqaro mehnat tashkiloti O‘zbekistonda majburiy mehnatga to‘liq barham berilganligini ochiqladi. O‘zbekiston AQSH va Yevropaning preferensiyalar bosh tizimida (“GSP+”) qatnashish huquqiga ega bo‘ldi. Sanoatga to‘siq bo‘lib turgan “Cotton Campaign” koalitsiyasining “paxta boykoti” bekor qilindi.

Shuningdek, mamlakatimiz AQSH Mehnat vazirligining “Bolalar mehnatining eng yomon shakllari” to‘g‘risidagi yillik hisobotida eng yuqori, ya’ni “muhim o‘zgarishlarni amalga oshirgan davlatlar” qatoriga kiritildi, 131 ta davlat orasida 4 ta eng yaxshi davlat mezonidan o‘rin oldi. Shunday qilib, o‘zbek paxtasi “Majburiy mehnatni qo‘llab ishlab chiqarilgan tovarlar ro‘yxati”dan chiqdi.

Bundan tashqari, odam savdosiga qarshi kurashish, undan jabrlanganlar huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish borasida ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, AQSH Davlat departamentining dunyoda odam savdosi to‘g‘risidagi yillik hisobotida O‘zbekiston alohida kuzatuv ostidagi davlatlar ro‘yxatidan chiqarildi, 2-toifadagi davlatlar (xalqaro standartlarni to‘liq bajarish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirayotgan davlatlar) qatorida qayd etildi.

Bolalar mehnatiga va majburiy mehnatga barham berilgandan so‘ng xorijiy brendlar, investorlarning O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik sanoatiga qiziqishi borgan sari ortib borayotir. Ularning O‘zbekiston bozoriga kirib kelishlari uchun barcha zarur shart-sharoit va imkoniyatni yaratish bo‘yicha ham muhim ishlar bajarilmoqda.

Yaqinda Prezidentimiz rahbarligida o‘tkazilgan videoselektor majlisida mamlakatimizda mashhur brendlar ostida mahalliy mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish, brendlarni jalb qilish bo‘yicha yangicha yondashuvlarni joriy etish yuzasidan vazifalar belgilab berildi, brendlar bilan ishlayotgan korxonalarga qo‘shimcha imtiyoz va kafolatlar berilishi qayd etildi.

Kelgusidagi asosiy vazifalar sifatida paxtani ekishdan to uni tayyor mahsulot sifatiga kelguniga qadar ishlab chiqarish zanjiriga xalqaro texnik, ishlab chiqarish, ekologik va mehnat standartlarini tatbiq qilishni yo‘lga qo‘yish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Ushbu yo‘nalishda alohida choralar belgilanib, bugungi kunda Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan birga “Better Work” xalqaro standartlarini, shuningdek, “Better Cotton Initiattive” (BCI) tashkiloti bilan hamkorlikda “Better Cotton” xalqaro tartiblarini tatbiq etish ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda bolalar mehnatiga va tizimli majburiy mehnatga barham berilgani munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha milliy komissiya “Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiya” deb qayta tashkil etildi.

Komissiyaning asosiy vazifalari va tarkibi qayta ko‘rib chiqildi. Milliy komissiyaga Oliy Majlis Senati Raisi rahbarlik qilishi belgilandi. Uning tarkibida O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri rahbarlik qiladigan Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kichik komissiya hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri rahbarlik qiladigan Munosib mehnat masalalari bo‘yicha kichik komissiya tashkil etildi.

Endilikda milliy komissiya munosib mehnat tamoyillarini tatbiq etish, mehnat sohasida xalqaro standartlarni joriy qilish, shuningdek, migratsiyaga oid siyosatni takomillashtirish borasidagi ishlarga asosiy e’tiborni qaratadi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yuritishda kichik komissiyalar hamda vazirlik va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Ishlab chiqarish va mahsulot yetkazib berish zanjirida xalqaro standartlar tatbiq etilishi paxta-to‘qimachilik sanoati tarmog‘iga investitsiyalarni jalb qilishga, to‘qimachilik mahsulotlarimizning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, milliy komissiya raisiga Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy ma’ruzachi vazifasini bajarish ham yuklandi.

**Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.**

# MA’NAVIY HAYOTIMIZDA TUB ISLOHOTLAR PALLASI VA HUQUQIY MANFAATLAR KAFOLATI

1

## Intellektual mulk himoyasi takomillashtiriladi

Deputatlar tomonidan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 121-moddasiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda moddama-modda ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, intellektual mulk inson tomonidan yaratiladigan ijodiy aqliy faoliyat mahsulidir. U iqtisodiyot rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biri hamdir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk ravnaqiga katta e’tibor qaratilgani sababli ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilangan, intellektual mulkning ichki yalpi mahsulotdagi ulushi keskin ortgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham intellektual mulkni rivojlantirish va uni huquqiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, huquqni qo‘llash amaliyotida intellektual mulk egalarining huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog‘liq masalalarda bir qator muammolar mavjud.

Xususan, internet tezligining oshganligi va undan foydalanish narxining pasayishi natijasida yurtimizda undan foydalanuvchilar soni keskin oshdi. Buning natijasida internet jahon axborot tarmog‘i orqali o‘zgalarga tegishli bo‘lgan intellektual mulk obyektlaridan, jumladan, tovar, xizmat ko‘rsatish belgilaridan qonunga xilof ravishda foydalanish odatiy tusga aylanib bormoqda.

Mazkur qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida ishchi guruh a’zolari, ekspertlar, huquqshunoslar ishtirokida bir qator tadbirlar, davra suhbatlari o‘tkazildi. Ularda deputatlar tomonidan berilgan takliflar chuqur tahlil qilinib, asosli, deb topilganlari qonun loyihasi matniga singdirildi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasining qabul qilinishi intellektual mulk sohasini yanada takomillashtirishga yo‘l ochadi. Qizg‘in bahs-munozaradan so‘ng qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda qo‘llab-quvvatlandi.

## Pensiya miqdori eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lmaydi

Majlisda deputatlar tomonidan fuqarolarga pensiya tayinlash jarayonida inson omilini kamaytirish, keksa yoshdagi shaxslarga davlat xizmati ko‘rsatilishi sifatini yanada oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda moddama-modda ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, pensiya tayinlash tartibini soddalashtirish va raqamlashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilmoqda.

Albatta, bu sa’y-harakatlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan O‘zbekistonning “ijtimoiy davlat” prinsipi hayotga tatbiq etilishi, “Inson qadri uchun” bosh g‘oyasini amalga oshirishning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, fuqarolarga pensiya tayinlashda inson omilini kamaytirish, keksa yoshdagi, nogironligi bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini yanada yaxshilash hamda mazkur sohada ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shundan kelib chiqib, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunga fuqarolarga Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali pensiya tayinlash uchun murojaat qilish huquqini yaratish, pensiyalarning eng kam miqdori belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lmasligiga doir o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

“Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunga esa Pensiya jamg‘armasi tomonidan Xalq bankiga axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladigan fuqaroning pensionerligi haqidagi ma’lumotlar asosida unga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidagi to‘lovlarini olish huquqini yaratishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish kiritilayotir.

Majlisda qayd etilganidek, ushbu qonun loyihasi joriy yilning 28-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan quyi palata majlisida birinchi o‘qishda ko‘rib chiqilib, deputatlar tomonidan konseptual jihatdan qabul qilingan edi. Loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash davomida qo‘mita tomonidan ishchi guruh a’zolari, huquqshunoslar, tegishli vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida bir qator tadbirlar, yig‘ilishlar o‘tkazildi. Mazkur tadbirlar davomida deputatlar tomonidan berilgan har bir taklif va tavsiyalar, fikr-mulohazalar atroflicha tahlil etilib, loyiha har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirildi.

Deputatlar qonun loyihasini ikkinchi o‘qishda moddama-modda ko‘rib chiqishda bir qator savollarni o‘rtaga tashladi. Jumladan, pensiya tayinlanganligi to‘g‘risida fuqarolarga xabar berish masalasi qonun loyihasida ochilmagani yuzasidan izoh so‘raldi.

Majlisda bu bo‘yicha atroflicha tushuntirish berildi. Ta’kidlab o‘tilganidek, hozirgi vaqtda pensiya yoshiga yetgan fuqarolar hududlardagi Pensiya jamg‘armasi yoki Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari markazi orqali pensiyani rasmiylashtirib kelmoqda. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida pensiyani rasmiylashtirish orqali esa qo‘shimcha imkoniyat yaratilyapti. Loyihada faqat rad etish masalasiga urg‘u berilayotgani sababli bu masala ochiqlanyapti. Ya’ni fuqarolarning huquqidan kelib chiqqan holda pensiya tayinlash rad qilingan vaqtda uning sabablari haqida xabar berish masalasi aks etmoqda.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasining qabul qilinishi aholining elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, elektron axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali pensiya tayinlangan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga o‘zlarining jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida yig‘ilgan mablag‘larini olishiga qulaylik yaratishga asos bo‘ladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

## Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik qayta ko‘rib chiqilmoqda

“O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga yong‘inlar profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Yong‘inlar profilaktikasi yo‘nalishida tizimli ishlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, o‘rmon zonalarida, aholining maishiy hayotida va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida, yong‘inlar bilan bog‘liq noxush hodisalar ro‘y bermoqda.

Qayd etish kerakki, o‘rmon yong‘inlari jahon miqyosida o‘rmon ekotizimiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yer yuzida mavjud o‘rmon maydonlarining deyarli uchdan bir qismi har yili olov bilan qoplanadi. Daraxtlar yonib, atmosfera havosi zaharli tutundan ifloslanib bormoqda.

O‘rmonlarda yong‘in xavfsizligi talablarini buzish uchun amalda ma’muriy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, ammo o‘rmonlarda yong‘in xavfsizligi talablarini buzish orqali yong‘in chiqishiga olib kelganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilanmagan. Shundan kelib chiqib, qonun loyihasi bilan o‘rmonlarda yong‘in xavfsizligi talablarini buzish orqali yong‘in chiqishiga olib kelganlik uchun alohida ma’muriy javobgarlik belgilanyapti.

Yong‘inlar profilaktikasi samaradorligiga erishish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tashviqot va profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish bilan birga yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirilishini taqozo etmoqda.

Shuningdek, huquqiy ta’sir choralarini qo‘llashda mutanosiblik va yetarlilik konstitutsiyaviy prinsiplariga rioya qilinishini ta’minlash maqsadida yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzgani uchun ayrim ma’muriy javobgarlik choralari liberallashtirilishi talab etiladi.

Shundan kelib chiqib, qonun loyihasi bilan fuqarolarning ehtiyotsizligi yoki yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganligi tufayli uy-joy fondida odamlar sog‘lig‘iga zarar yetishi yoxud o‘zganing mol-mulki shikastlanishi yoki uning yo‘q qilinishi bilan bog‘liq bo‘lmagan tarzda yong‘in yuzaga kelganda bunday shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish ko‘zda tutilayotir.

Bundan tashqari, boshqa shaxslarga qo‘llanilganidek tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ham yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash huquqini davlat yong‘in nazorati organlariga berish nazarda tutilyapti.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra agar shaxs huquqbuzarlik faktini inkor etsa yoki yengilroq ma’muriy jazo qo‘llashni so‘ragan taqdirda, bunday shaxs mazkur masalalar yuzasidan sudlarga murojaat etishga haqli. Mazkur norma tadbirkorlik subyektlariga ham o‘z qonuniy manfaatlarini himoyalash uchun imkon beradi.

Deputatlarning ta’kidlashicha, qonun loyihasining qabul qilinishi mavjud amaliyotning bir qancha xususiyatlarini o‘zgartirib, yong‘inlar profilaktikasining va tabiatni muhofaza etish faoliyatining samaradorligini oshirishga, shuningdek, yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy ta’sir ko‘rsatish choralarining yanada samarali qo‘llanilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

## Farmatsevtika sohasida ortiqcha talablar bekor qilinmoqda

“Farmatsevtika sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham quyi palata majlisida muhokama markazida bo‘ldi.

Qonun loyihasi bilan “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi hamda “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlarning ayrim normalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Ya’ni Sog‘liqni saqlash vazirligi vakolatidan retseptsiz beriladigan dori vositalari ro‘yxatini yiliga kamida bir marta tasdiqlash normasi va unga aloqador bo‘lgan bandlar chiqarilmoqda.

Chunki amaliyotda ushbu tartib Sog‘liqni saqlash vazirligi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkaziladigan buyruqni qabul qilishini nazarda tutadi. Bu esa bir muddat vaqtni talab etadi. Ushbu vaqt davomida dori vositalarining o‘ramida va qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasida retseptsiz berilishi ko‘rsatilganligiga qaramasdan ular Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan retseptsiz beriladigan dori vositalari ro‘yxatiga kiritilguniga qadar ularni qo‘llash tartibi mavhum bo‘lib qolmoqda. Bunda Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi ekspertlar kengashi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazish maqsadida bir oyda kamida 2-marta yig‘ilish o‘tkazilishi inobatga olinsa, retseptsiz beriladigan dori vositalari ro‘yxatini shuncha marta yangilash va Adliya vazirligidan o‘tkazish zarur bo‘ladi.

Qonun loyihasi bilan retseptsiz beriladigan dori vositalari ro‘yxatini Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanishini nazarda tutuvchi ortiqcha byurokratik norma chiqarib tashlanmoqda. Natijada dori vositalari Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi chog‘ida “Dori vositalarini retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibi to‘g‘risidagi nizom” asosida uning retseptsiz yoki retsept asosida berilishiga oid toifasi aniqlanadi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan dori vositasi avtomatik shakllantirilib boriladigan ro‘yxatda qayd etilib, ochiq veb-saytda joylashtiriladi.

Shu bilan birga, qonun loyihasida dori moddalari (substansiyalar)ni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga oid normani bekor qilish nazarda tutilmoqda. Chunki bugungi kunda dori vositalarini ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilgan xalqaro standartlar (GMP) va sifat nazoratiga qo‘yilgan talablar doirasida substansiyalarni nazorat qilishning muqobil mexanizmlari joriy etilgan.

Muhokama chog‘ida qonun loyihasining ahamiyati yuzasidan asosli fikrlar bildirildi. Ayrim e’tirozli jihatlarni qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida atroflicha ko‘rib chiqish zarurligi aytib o‘tildi.

Qonun loyihasida taklif etilayotgan yangiliklar sohadagi ayrim takrorlanuvchi va byurokratik talablarni bekor qilish orqali aholining sifatli, xavfsiz, samarador va arzon dori vositalari bilan ta’minlash darajasi oshishiga zamin yaratadi.

Qizg‘in bahs-munozara, uzoq davom etgan savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

## Tadbirkorlarga soliq to‘lashda imtiyozlar beriladi

Majlisda ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat — “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bo‘ldi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirish doirasida kambag‘allikni qisqartirish, shuningdek, kam ta’minlangan oila a’zolarining bandligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda.

Ayni chog‘da tadbirkorlik subyektlarini kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarga faol jalb qilish maqsadida qo‘shimcha soliq imtiyozlari va preferensiyalar hamda soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish va pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash zarurati paydo bo‘lmoqda.

Qonun loyihasi bilan Soliq kodeksining tegishli moddalari tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari soniga qarab to‘lanadigan soliqlarni pasaytirilgan stavkalarda hamda bo‘lib-bo‘lib to‘lashga imkoniyat berishni ko‘zda tutuvchi normalar bilan to‘ldirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish, shuningdek, Soliq kodeksi normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalda qo‘llanilishiga va aholi bandligining o‘sishiga, kambag‘allikni qisqartirishga hamda kam ta’minlangan oilalar a’zolari bandligi ta’minlagani uchun tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan bir qator takliflar berdi. Qonun tashabbuskorlari har bir taklif o‘rinli va asosli ekanligini bildirib, ular loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida e’tiborga olinishi qayd etildi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Mikroqarz berishning eng yuqori miqdori yuz million so‘mgacha oshiriladi

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Keyingi yillarda bank tizimi va moliyaviy xizmatlar iste’molchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, mijozlar uchun qulay va zamonaviy moliyaviy xizmatlar turini ko‘paytirish hamda sifatini yanada oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda kredit tashkilotlaridan kredit olgan jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlari ayrim obyektiv sabablarga ko‘ra kredit to‘lovlarini kechiktirgan yoki qisman to‘lagan hollarda ushbu to‘lovlarning kredit qarzdorligini so‘ndirish nav¬bati bo‘yicha amaldagi tartibni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Qonun loyihasi bilan Fuqarolik kodeksiga jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan mikroqarz yoki kredit bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lov summasi agar qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, qarz oluvchining qarz majburiyatlari mutanosib ravishda so‘ndirilishini nazarda tutuvchi tartib belgilanmoqda.

Shuningdek, kredit bo‘yicha qarzdorlikni va hisoblangan foizlarni undirish haqida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda, mazkur kredit bo‘yicha foizlar, shuningdek, neustoyka hisoblanishi to‘xtatilishiga oid, bundan tashqari, “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga “mikromoliyalashtirish faoliyati” deb e’tirof etiladigan mikroqarz berishning eng yuqori miqdori ellik million so‘mdan yuz million so‘mgacha oshirilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritilmoqda.

Qonun loyihasi qarz oluvchilar uchun qulay moliyaviy imkoniyatlar yaratishga hamda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga asoslar yaratadi.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

## Yana bir xalqaro Konvensiya ratifikatsiya qilindi

Deputatlar “Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to‘g‘risidagi 95-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasini ham ko‘rib chiqdilar.

Majlisda ta’kidlanganidek, Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to‘g‘risidagi 95-sonli Konvensiyasi mamlakatimizda xodimlarning mehnat huquqlarini, shu jumladan, mehnati uchun munosib ish haqi olishga doir huquqlarini ta’minlashga qaratilgan maqsadlarni ko‘zda tutadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to‘g‘risidagi 95-sonli Konvensiyasi Xalqaro mehnat tashkilotining Bosh konferensiyasi, Xalqaro mehnat byurosining Ma’muriy kengashi tomonidan qabul qilingan.

Bugungi kunga qadar mazkur Konvensiya Xalqaro mehnat tashkilotiga a’zo bo‘lgan 99 ta davlat, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston tomonidan ratifikatsiyalangan.

Deputatlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida ish haqini himoya qilish bo‘yicha talablar Konvensiya talablariga mos kelishi qayd etilib, milliy mehnat qonunchiligining xalqaro mehnat standartlariga javob beruvchi joriy holatini hisobga olgan holda mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

Mazkur Konvensiyaning ratifikatsiyasi kelgusida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga, Xalqaro mehnat tashkilotining hujjatlarida belgilangan mehnat huquqlarini, shu jumladan, mehnati uchun munosib ish haqini o‘z vaqtida olish huquqlarini ta’minlash bo‘yicha xalqaro standartlarni samarali joriy etishga, ayni chog‘da xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarda O‘zbekistonning ijobiy imijini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

## “Yashil energiya” sertifikatlari savdosidan tushgan daromadlar foyda solig‘idan ozod etiladi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan — “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yanada rivojlantirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan amaldagi qonunchilikka “yashil energiya” sertifikatlari tushunchasini kiritish hamda bunday sertifikatlarni berish va muomalaga kiritish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilishi nazarda tutilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi elektron hujjat “yashil energiya” sertifikati sifatida qayd etilishi taklif qilinmoqda.

Shuningdek, quvvati 300 kVt va undan yuqori bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi tizimiga ulash maxsus vakolatli davlat organida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyingina amalga oshirilishi belgilanmoqda. Bundan tashqari, Soliq kodeksiga “yashil energiya” sertifikatlari savdosidan tushgan daromadlar foyda solig‘idan ozod etilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha kiritilishi ko‘zda tutilmoqda.

Deputatlarning ta’kidlashicha, qonun loyihasining qabul qilinishi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, uning samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligini bartaraf qilish, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag‘batlantirish mexanizmlarini belgilash imkonini beradi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.**

Tuyg‘u



**Mahmud TOIR, O‘zbekiston xalq shoiri, senator**

# VATANNI VATANDA SEVMOQ YAXSHIDIR

*Ko‘ngil ko‘chasining xayoli turfa,*
*Iymon vatanparvar dilning naqshidir.*
*O‘zbekiston baxtli bandaga tuhfa,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Oyning o‘rog‘iga osilib bo‘lmas,*
*Vatangadolarning qarog‘i kulmas,*
*Elparvar erlarning chirog‘i so‘nmas,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Ibrat bobomizdan qolgan o‘git bor:*
*— Ulamo g‘ayrati — islohga mador...*
*Millatim deganga xalqning mehri yor,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Ilmda iylangay dilning durkuni,*
*Muallimu ta’lim — hayot ustuni,*
*Qalbni qoplamasin armon kukuni,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Tirik tarixi bor o‘zbek millatin,*
*Jadid bobolarning uqing ibratin,*
*O‘zbek ko‘tarmagan yotlar minnatin,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Bizga tosh otganning o‘zlari toshdir,*
*Hasadi xo‘rlagan ko‘zdagi yoshdir,*
*Bizga bobolardan meros bardoshdir,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Bo‘sh qop tikka turmas — azal hikmati,*
*Borin baham ko‘rmoq o‘zbek himmati,*
*Halol mehnatidan topgan hurmati,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Onamiz — ona til mangu bekasi,*
*Ona til — onamiz sutin mevasi,*
*Turfa gul rangidur uning shevasi,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Yurgan daryo — o‘zbek dunyoni ko‘rsin,*
*Til bilsin, boy bo‘lsin, qandini ursin,*
*Ammo o‘zbekligin unutmay yursin —*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*Ortga qaytmas karvon bizning karvondir,*
*E’zoz topgan sarbon bizning sarbondir,*
*Uchinchi Uyg‘onish — buyuk imkondir,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

*O‘zbek, O‘zbekiston bo‘lib yashaylik,*
*Bitta tan, bitta jon bo‘lib yashaylik,*
*Qadri, ori osmon bo‘lib yashaylik,*
*Vatanni Vatanda sevmoq yaxshidir.*

Oliy Majlis Senatida

# JOYLARDA AHOLINING SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIGI QANDAY TA’MINLANYAPTI?

*Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi majlisida “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtalik to‘g‘risida”gi Qonunning davolash-profilaktika, ta’lim, sport, madaniyat muassasalarini saqlashga doir talablarining Namangan viloyatida ijro etilish holati muhokama qilindi.*

Unda senatorlar, xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi hamda tegishli doimiy komissiya a’zolari, qator vazirlik va idoralar mutasaddilari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Viloyatda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini saqlash, ijtimoiy soha muassasalaridan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq foydalanish borasida doimiy nazorat tadbirlari o‘tkazilgan.

Shuningdek, 363 ta davolash-profilaktika muassasasi obyektlarida, jumladan, 328 ta byudjet obyekti va 35 ta tadbirkorlik subyektida joriy sanitariya nazorati olib borilgan.

Shu bilan birga, ijtimoiy soha obyektlarining 2023-2024-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashini ta’minlash maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi tizimidagi 607 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotidan 588 tasi, 741 ta maktab ta’limi muassasasidan 712 tasi, jami 1300 ta muassasaning isitish tizimi davlat-xususiy sheriklikka o‘tkazilgan, tuman hokimliklari bilan o‘n yil muddatga bitim imzolangan.

Qolaversa, majlisda senatorlar tomonidan aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini saqlash, ijtimoiy soha muassasalaridan sanitariya qoidalari, gigiyena me’yorlariga muvofiq foydalanish borasida ayrim muammolar mavjudligiga e’tibor qaratildi. Masalan, ijtimoiy soha muassasalarida o‘tkazilgan o‘rganishlar davomida kimyoviy va bakteriologik tahlillar uchun, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ichimlik suvidan bakteriologik tahlillar uchun olingan namunalarning ayrimlari talabga javob bermasligi aniqlangan.

Ijtimoiy soha muassasalari qurilishi va rekonstruksiya qilinishi bo‘yicha 68 ta loyiha ko‘rib chiqilgan, ulardan 19 tasi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga mos kelmaganligi uchun qaytarilgan.

Muhokama yakunida kelgusida davolash-profilaktika, ta’lim, sport, madaniyat muassasalarida sanitariya-epidemiologik osoyishtalik holatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi hamda Senat qo‘mitasining qarori qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# YANGI O'YG'ONISH DAVRI

## POYDEVORINI YARATISHDA MUSTAHKAM TAYANCH



1

### Jadidlar merosiga yangicha yondashuv

Hech bir qaror bejiz qabul qilinmaydi. Zero, bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgani, shu bilan birga, insonlar ongu qalbiga qaratilgan axborot xurujlari, ba'zi davlatlar o'rtasidagi ziddiyatli jarayonlarning kuchaygan ta'siri mamlakatimizda ham sezilayotir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqani tarixdan ma'lum. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadr¬lar suv bilan havodek zarur.

Yig'ilishda ma'rifatparvar bobolar g'oyalarini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilinishi belgilandi. Shuningdek, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi ochiladi, "Jadid" nomli yangi gazeta tashkil etiladi. Bu bejiz emas. Bugun yoshlarimizga ibrat bo'ladigan ota-bobolarimizning jasoratli yo'lini ochib beruvchi qo'llanmalar juda kerak.

Jadid bobolarimiz yurtimizni ozod etishga, qoloqlikdan olib chiqib, hamma sohani rivojlantirishga bor vujudini bag'ishlagan. Va buning badalini o'z jonlari bilan to'lagan. Biz bugungi mustaqillik, tinchlik, erkinlik sharoitida ularni eslashimiz, e'zozlashimiz ham qarz, ham farz. Quvonarlisi, bugun yurtimizda jadidlar muzeylari tashkil etilyapti, ularning kitoblari nashr qilinmoqda, nohaq ayblangan ajdodlarimizning ko'pchiligi sudlar tomonidan oqlanyapti. Lekin shu bilangina asosiy maqsadlarga yetib bo'lmaydi. Ma'rifatparvar bobolarimiz g'oyalarini ongu qalbga yanada chuqur singdirish, bu insonlarga nisbatan bugungi avlodlarda hurmat-ehtiromni yanada kuchaytirish zarur. Prezidentimiz buning uchun qatag'on qurbonlari tug'ilib o'sgan yoki bugun avlodlari yashayotgan uyga, mahallaga, o'sha yerdagi maktabga ularning nomlarini yozib qo'yish taklifini ko'tardi. Fikrimizcha, bu ham savobli, ham ibratli ish bo'ladi. Ular har birining hayoti — qahramonlik. Biz buni o'rganib, targ'ib qilib, yoshlarimizga yetkazishimiz lozimligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Yig'ilishda mutasaddilarga jadid bobolarimiz tarixini o'rganayotgan tadqiqotchilar uchun maqsadli grantlar ajratish, ular haqida hujjatli va badiiy filmlar olish, matbuot va internet nashrlarida materiallar chop etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Nega? Chunki xalqimiz u davrni yaxshi bilishi, ajdodlarimiz jasoratidan faxrlanishi kerak. Yoshlar "Bizning bobolarimiz istiqlol orzusida kurashgan, o'zini ayamagan, biz mustaqillik uchun nima qilyapmiz?» deb o'ziga savol berishi zarur. Mustaqillikning mustahkam zamini nima o'zi? Avvalo — vatanparvarlik, bilim, ma'naviyat. Shundan kelib chiqib, Prezidentimiz jamiyatimizda ana shunday vatanparvarlik, shukronalik ruhini kuchaytirishga da'vat etmoqda.

Davlatimiz rahbarining jadidlar fao¬liyatini o'rganish, ularning ezgu g'oyalarini zamonamizga mos holda davom ettirish borasidagi fikrlari ayni masalada barchamizga dasturilamal bo'lib kelayotir. Jumladan, 2020-yil boshida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degandi: "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi".

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va Kavkazning markaziy shaharlari hamda Qozonda yuzlab ziyolilar xurofot va chor Rossiyasining istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan o'z xalqlarining ijtimoiy-madaniy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida nihoyatda katta ma'rifatchilik ishlarini olib bordi. Ular Yevropacha usuldagi teatr to'garaklari tuzdi, turli gazeta va jurnallar chop etdi. Teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan "usuli jadid", ya'ni yangicha, ilg'or usuldagi maktablar ochdi va bu maktablarda mahalliy xalq bolalarini o'qitdi. Jadidlar o'z millatdoshlaridan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy, bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildi va shu yo'lda fidoyilik ko'rsatdi.

Ma'rifatparvar bobolarimiz mustaqillik uchun, xalqimizning emin-erkin yashashi uchun kurashganini bilamiz. Oxirgi yillarda butun jamoatchiligimiz harakati bilan ularning nomlarini tiklash, muzeylarni yangi eksponatlar bilan to'ldirish, ijod maktablari tashkil etish bo'yicha ko'p ishlar qilinyapti. Bularning hammasi odamlarga tarixiy adolatni, haqiqatni yetkazish, qolaversa, xalqimiz u kunlarni bilishi va hech qachon unutmasligi, bugungi kunlarning qadriga yetishi uchun zarur.

Turkiston ma'rifatchiligi ilk davridan farqli o'laroq faqat feodal tuzum asoslarini ilm-fan, ma'rifat orqali o'zgartirish, ayrim yangiliklarni joriy etish va shu yo'l bilan rivojlanishni maqsad qilibgina qolmadi, balki bu ishlarni jadal amaliy izga solib, chirkin urf-odatlar, bid'atlarga qarshi ochiq kurash olib bordi.

Jahon "ma'rifatchilik davrlari" tajribasidan ma'lumki, ma'rifatchilikning eng birlamchi asosi feodal qoloqlik va diniy mutaassiblikning inkor etilishi, jamiyatda erkin, adolatli, madaniy munosabatlarning shakllanmog'idan iborat. Bu yo'ldagi eng asosiy vazifa jamiyat a'zolarining ongini qayta qurish, tushuncha va tasavvurlarini o'zgartirishdir. Buni amalga oshirishning asosiy sharti — ilm-fan, turli dunyoviy bilimlar tarqatish. Jadid ma'rifatchilari xuddi shu yo'ldan bordi.

Afsuski, bugungi kunimizda ham diniy e'tiqod niqobi ostida yoshlarni ma'rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo'lmoqda.

Yig'ilishda ba'zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo'yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlari uchrayotgani qayd etildi. Prezident bu o'rinda Ibrat domlaning "Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur", degan hikmatli so'zlarini yodga oldi. Ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytildi.

Haqiqatan ham, jadid bobolarimizning erkparvarligi, vatanparvarligi, yurt ertasi uchun kuyib-yonishi, yangilikka intilishidan xulosalar chiqarishimiz, ma'naviyatni ulardan o'rganishimiz lozim. Ma'naviyatsiz yangi O'zbekistonni ham, uchinchi Renessansni ham barpo etish mushkul ekanini anglash davri keldi.

### Fikrsizlik — ma'naviy qaramlik

Ma'naviyat kishilarni fikriy va ma'naviy mudroqlikdan qutqaradi, buni inkor qilolmaymiz. Ayrim odamlarda jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tahlil eta olish ko'nikmasi mavjud emasligini, bu esa ularda yuz berayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini teran anglashga xalaqit qilayotganini sezish mumkin. Nazarimizda, bu narsa o'sha odamlardagi fikrsizlik tufayli sodir bo'lyapti.

Fikrlash — insonga xos xususiyat. Har bir shaxs fikrlaydi, yoni-beridagi voqea-hodisalarga baho beradi, o'z faoliyatini belgilaydi, xulosa chiqaradi. Qisqacha aytganda, inson fikrlay olishi bilan boshqa jonzotlardan farqlanadi. Fikrsiz insonni, odatda, hissiyot boshqaradi. Bu esa boshqalarning o'sha insonni ortidan ergashtirishiga, boshqarishiga sharoit yaratadi.

Fikrsizlik va ma'naviy qaramlik — kishilar tafakkuri ustidan muayyan g'oyalarning hukmron mavqega egaligini, insonning sodir bo'layotgan voqealar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mustaqil baholash imkoniyatidan mahrum bo'lganini ifodalaydigan tushuncha hisoblanadi. Fikrsizlik insonni tafakkur qulligiga olib boradi. Ma'naviyat o'sha fikrsizlik holatini bartaraf etadigan kuchdir.

Bugungi kunda ayrim kishilarda "ommaviy madaniyat"ni ko'r-ko'rona qabul qilish, olomonlik kayfiyati, johillik ko'zga tashlanayotgani ham fikrsizlik natijasidir. Bu holatni ma'naviy o'lim, deyish mumkin. Ma'naviyat kishida o'zini o'zi boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi, tanqidiy tahlil qilish uchun keng imkoniyat yaratadi. Davlatimiz rahbari bugun jamiyatni, xalqni, yoshlarni uyg'otish orqali O'zbekistonning dunyodagi o'rnini mustahkamlashni, tenglar ichra teng bo'lishimizni, mamlakatni farovon, qudratli kuchga aylantirishni ko'zlayapti.

Shu ma'noda, biz bugun uchinchi Renessans poydevorini qurishga kirishar ekanmiz, uning ikki muhim jihati — yoshlarda mantiqiy fikrlash va yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishga e'tibor berishimiz juda muhim. Qotib qolgan eski fikrlar, bir qolipdagi qarashlar, kimningdir nuqtai nazari asosida qabul qilingan xulosalar aslida ma'naviy mudroqlikdan boshqa narsa emas.

Bugun yurtimizda mazkur muammolarni bartaraf etish uchun barcha shart-sharoit mavjud. Jumladan, bu boradagi ishlarga moddiy tayanch yaratish maqsadida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Har bir masalani ilmiy yondashgan holda hal qilish uchun Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi, ularni moddiy rag'batlantirish choralari ko'rildi. "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun imzolangani soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Umuman, madaniyat va san'at sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi 2017-yildagiga nisbatan 5 karra oshib, 2023-yilda bu maqsadlar uchun 712 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Bugun milliy qadriyatlarimizni, azaliy an'analarimizni, ota-bobolarimizning o'lmas merosini nafaqat mamlakatimiz yoshlari o'rtasida, balki dunyo miqyosida ham targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqom, baxshichilik, hunarmandchilik, "Lazgi" raqsi targ'ibotiga bag'ishlangan xalqaro festivallar muntazam o'tkazilayotgani, xorijiy mamlakatlarda, jumladan, qo'shni davlatlarda "O'zbekiston madaniyati kunlari" uyushtirib kelinayotgani so'zlarimiz isboti.

Amalga oshirilayotgan ishlar o'z mevasini bermoqda. Xalqimizning madaniy boyliklari dunyo xalqlari, xalqaro tashkilotlar, ekspert va mutaxassislar e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Xususan, keyingi yillarda yana 9 ta milliy merosimiz namunasi UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga, Buxoro shahri esa "Ijodkor shaharlar tarmog'i"ga kiritilganini ta'kidlash lozim.

Bularning barchasi islohotlar, ochiqlik va pragmatizmga asoslangan siyosat natijasidir. Bu hali hammasi emas. Hozirgi kunda targ'ibotning eng samarali tarmoqlaridan biri kino san'ati rivojiga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilyapti. Shu tufayli chinakam san'at asarlari yaratilyapti. Jumladan, buyuk sarkarda va ulug' allomalarimiz haqida tarixiy filmlar suratga olindi. Qariyb chorak asrdan keyin Toshkent xalqaro kinofestivali qayta tiklandi.

### Bedor qalb egalari

Ijodkorlar umrboqiy asarlar yaratibgina qolmay, barcha makon va zamonda el-yurt taqdiri uchun doim kuyunib, yonib yashagan, o'zgalar dardini o'ziniki deb bilgan. Ularni bejiz "Bedor qalb egalari" deyishmaydi. Mamlakatimizda ana shunday iqtidor sohiblari hamisha e'tibor va e'zoz og'ushida. Chunonchi, keyingi yillarda poytaxtimizda Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosi, hududlarda yangi ijod uylari qurildi. Samarali ijod qilayotgan adiblar imtiyozli asosda uy-joylar bilan ta'minlanmoqda. Atoqli ijodkorlarimizning tavallud sanalari nishonlanyapti. Yosh iste'dodlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Zomin seminari qayta tiklandi.

Davlat rahbaridagi shijoat, matonat va tashabbuskorlik ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ham yana bir karra namoyon bo'ldi. Avvalo, ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyamizni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish lozimligi ta'kidlandi. Chunki milliy g'oya va ma'naviyat bizga insonni axloqiy tubanlikdan qutqarish uchun zarur.

Darvoqe, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va texnologik taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan G'arb tamadduni yangi ming yillikning boshiga kelib, tarixiy rivojlanishning g'oyat ziddiyatli va murakkab bosqichini boshidan kechirayotgani, bunda azaliy qadriyatlar o'rnini faqat shaxsiy manfaat, aysh-ishrat, huzur-halovat mayllariga yo'g'rilgan yangi axloq va e'tiqod egallayotgani, jamiyatning ma'naviy asoslari yemirilayotgani ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Bugun o'z axloqiy qadriyatlariga, milliy an'analariga befarqlik bilan qarayotgan har qanday davlat yoki millat — xoh u katta bo'lsin, xoh kichik — xuddi chirmovuqdek o'rab kelayot¬gan mafkuraviy tahdidlar, g'oyasizliklar oldida ojiz bo'lib qolmoqda.

Shu bois bugun mamlakatimizda milliyligimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlardan — chegarani buzmasdan, bildirmasdan, xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelayotgan tahdidlardan himoyalanish jamiyatning asosiy vazifasiga aylanishi kerakligi ta'kidlanmoqda.

Taassufki, o'zini ziyoli deb biluvchi ayrim kimsalar bugun odamlarni yaxshilikka boshlash, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanish, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash o'rniga ba'zi hollarda o'zlari nafsini jilovlay olmasdan, keraksiz sarf-xarajatlarga, ortiqcha dabdababozlikka ruju qo'yayotgani sir emas. Vaholanki, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarga muqaddas dinimiz faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undashini, hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmasligini tushuntirish ana shunday insonlarning vazifasidir.

### Ta'lim-tarbiyadagi oqsash, no'noqlik oqibati

Biz dunyoviy davlat qurayotgan bo'lsakda, ba'zan hayotda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ro'yxatdan o'tmasdan, yashirincha shar'iy nikoh o'qitish, xotin ustiga xotin olish holatlari ham, ming afsuski, uchrab turibdi. Bugun ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan kundoshlik, qo'shxotinlik balosi qanday xunuk oqibatlarga olib kelishi barchamizni tashvishga solishi kerak. Axir tegishli davlat idorasida qonuniy qayd etilmagan "nikoh"dan tug'ilgan farzandlarning taqdiri, kelajagi ertaga nima bo'ladi? Bunday bolalar ruhan majruh bo'lib, turli ma'naviy nuqsonlar bilan voyaga yetadi. Ular o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi deb his qilolmaydi.

To'y-ma'rakalarimizni tartibga solish haqida ham ko'p gapiramiz. Bu masala necha yillar, hatto asrlardan beri kun tartibidan tushmasdan keladi. Jadid bobolarimiz ham to'y-ma'rakalardagi isrofgarchilik, dabdababozlik, maqtanchoqlik millatimizni ma'naviy tanazzulga yetaklaydigan illat ekani haqida qanday kuyunib o'tganlarini yaxshi bilamiz. Ochig'ini aytadigan bo'lsak, to'y-hashamlar bilan bog'liq ortiqcha



xarajatlar ming-minglab oilalarning nafaqat iqtisodiy ahvoliga, balki hayotiga, sog'lig'iga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugun hayotimizda ko'payib borayotgan oilaviy mojarolar, urush-janjal va ajralishlar, qudalar o'rtasidagi sovuqchilik sabablari ham aksariyat hollarda xuddi shu narsaga borib taqaladi. Eng yomoni, pul topib aql topmagan, ma'naviy saviyasi past ayrim kimsalar to'y-hashamlar, ma'rakalarni o'tkazish bo'yicha musobaqa o'ynab, turli-tuman yangi odatlarni o'ylab topyapti. Bularni eshitib, ba'zan odam hayratdan yoqa ushlaydi.

Qiz bolalarning o'qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani ayon. Biroq ba'zi oilalarda hali ham qiz farzandning oliy ta'lim olishiga panja orasidan qarash ustuvor. Axir ertaga ular ona bo'ladi, kelgusi avlodlarimizni tarbiyalaydi. Yurtimizda xotin-qizlarning oliygohlarda o'qishi uchun keng qulayliklar yaratilayotgani ham shundan. Va bu o'z samarasini berishi, shubhasiz. O'qimishli, ziyoli onalarning farzandlari ham bilimdon, oqu qorani taniydigan, ma'naviyatli insonlar bo'lib yetishadi, millatimiz chirog'i bo'ladi.

Navqiron avlodga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik bois bugun buyuk ajdodlarimizning munosib merosxo'rlari, izdoshlari yetishib kelayotir. Ular jahonning ilm-fan, madaniyat va sport maydonlarida Vatanimiz nufuzini oshirishdek sharafli vazifani ado etmoqlari lozim. Ana shu yuksak ehtiromga sazovor ishlarni faqat va faqat metin irodali, shijoatli va albatta, ma'naviyati boy yoshlargina bajara oladi. Jahon ilm-fan, madaniyat, sport musobaqalariga chiqqan har bir yigit-qiz ko'zi oldida, avvalo, o'z ona Vatani, uning muqaddas tuprog'i, jondan aziz qishlog'i, mahallasi tursa, ular ota-onasi, ustozlari ishonchini oqlash mas'uliyatini his etsa, shubha yo'qki, yuksak natijalarga erisha oladi. Zero, bu ma'naviyat kuchi, qudratidir.

Biroq, tan olishimiz kerak, yoshlarimizning barchasini ham ana shunday salohiyatga, saodatga musharraf deb bo'lmaydi. Bu ta'lim-tarbiyadagi oqsash, no'noqlik oqibatidir. Ayrim yigit-qizlardagi befarqlik, dangasalik, ishyoqmaslik, huzur-halovatni afzal bilish, kibr, qonunlarga, qoida-me'yorlarga amal qilmaslik kabi holatlar, afsuski, jamiyatimizning yanada tezroq taraqqiy etishiga xalaqit bermoqda.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq yoshlar his etmoqda. Ular barcha yangilanishlarni o'z hayotiga tatbiq qilishga intilmoqda. Biroq har narsada bo'lgani kabi me'yorni, umuminsoniy tamoyillarni, xalqimizning azaliy qadriyatlarini unutish kerak emas. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin". Bunga nimaning hisobidan erishiladi? Albatta, tarbiya hisobidan. Ammo tarbiya degani faqat maktab tarbiyasidan iborat emas. Tarbiya birinchi galda oiladan va mahalladan boshlanadi.

### Teatr — ibratxona

Ma'naviyatni oshirishda teatrning o'rni beqiyos. Shu ma'noda, Prezidentimiz teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqilishini ta'kidladi. Unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish kabilar nazarda tutiladi. Korxona va muassasalarda oyning bir kuni "Teatr kuni" deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo'lga qo'yiladi.

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligini yaxshi anglaymiz. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek, teatr haqiqatan ham ibratxona, qutlug' tarbiya va ma'rifat maskanidir. Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, qalblarda oliyjanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Biz esa, aksincha, teatrlarga borishni unutib qo'ydik. Vaholanki, azim poytaxtimiz Toshkent shahrida, barcha hududimizda yangi-yangi ilm-fan va madaniyat maskanlari, zamonaviy teatr va amfiteatrlar barpo etilayotganiga guvohmiz. Bu haqda gap ketganda, jumladan, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti, Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri tashkil qilinganini ta'kidlash lozim. Xullas, hozirgi kunda shiddatli zamon, hayotning o'zi barchamizning oldimizga o'ta muhim va murakkab vazifalarni qo'yayotgan, el-yurtimizni turli xavf-xatarlardan asrash, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga ehtirom ruhida barkamol insonlar etib tarbiyalash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borish dolzarb vazifaga aylangan bir paytda teatr bu boradagi ishlarda ko'makdosh bo'la oladi.

Yig'ilishda ko'pdan beri xalqimizni o'ylantirib kelayotgan seriallar haqida ham achchiq, ammo o'rinli mulohazalar bildirildi. Haqiqatan ham, aksariyat seriallar g'oyaviy-badiiy jihatdan nochor, ulardan o'rin olgan mavzularda bugungi kun nafasi, odamlarni o'ylantirayotgan, hayajonga solayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar o'z aksini topmayapti. Telekanallar orqali namoyish etilayotgan sayoz, siyqa seriallar kimlar uchun, qaysi auditoriya uchun mo'ljallangan? Bu savollar hamon ochiq qolmoqda.

Afsuski, bugun ayrim seriallarni oila, farzandlar davrasida tomosha qilib bo'lmay qoldi. Ulardagi maishiy mavzular, yengil-yelpi sahnalar kishining g'ashiga tegadi. O'ylaymizki, endi vaziyat o'zgaradi. Milliy seriallar ishlab chiqarish bo'yicha mavjud tizim tubdan isloh etiladi.

Davlatimiz rahbari shu maqsadda Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasini yaratish zarurligini, unda, avvalambor, mahalliy ijodkorlarimizga, xususan, ijrochi san'atkorlar, dramaturg va rejissyorlarimiz uchun zamonaviy sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratish o'rinli bo'lishini ta'kidladi. Buning uchun IT-park kabi erkin iqtisodiy zona — "Cinema-park" tashkil qilish lozimligini qayd etdi.

Kino sohasida ham islohotlar yanada kengaytiriladi. Jumladan, "Tirik tarix" seriyasida Vatanimizning shonli o'tmishiga bag'ishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb qilinadi. Shuningdek, bolalar uchun buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li haqida ko'p qismli animatsion filmlar yaratiladi.

Bu ishlar xalqimizning milliy g'ururini yuksaltirish, yoshlarning Vatanimiz tarixiga oid bilimlarini boyitish, shuningdek, bugungi O'zbekistonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tahlil qilish, ulardan zarur xulosalar chiqarish ko'nikmasini yuksaltirish uchun ham juda zarur. Tan olish kerak, keyingi yillar mamlakatimiz tarixida sezilarli ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga g'oyat boy bo'ldi. Mamlakat va jamiyat hayotini isloh qilishda ko'plab konseptual-nazariy o'zgarishlar yuz berdi. Barcha sohada, ayniqsa, jamiyat siyosiy tizimidagi yangilanishlar xalqimiz ijtimoiy hayotini ijobiy tarafga o'zgartirayotgani bilan birga, xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Ana shu masalalarni xalqimizning keng ommasi ijtimoiy ongiga yetkazish, ularning mazmun-mohiyatini tushuntirish, shubhasiz, ma'naviyat, ma'rifat, targ'ibot sohalarining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Afsuski, ayrim kishilar ijtimoiy tarmoqlardagi ko'ngilochar sahifalarga mahliyo bo'lib qolgani, beparvoligi, bilimi pastligi oqibatida yurtimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qilish, zarur xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lmayapti. Ma'naviyat bizga e'tiqodi sust, ijtimoiy jihatdan beg'am ayrim yurtdoshlarimiz ma'naviy olamini shakllantirish va ularni arosatda qolish xavfidan qutqarish uchun ham kerak. Chunki Vatanimiz mustaqilligi, suverenitetining saqlab qolinishi, mamlakatning taqdiri har birimizning qo'limizda.

### Til — milliy o'zlik ildizi

Davlatimiz rahbari o'zbek tilini o'qitish samarasini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilariga kelgusi o'quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to'lanadi. Negaki, dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili — xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Bu bebaho boylik o'zbek qavmining ona tili sifatida millatimizning milliy-ma'naviy dunyosini charog'on qilib tursa, davlat tili sifatida ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari qalbiga bir davlatga, bir yurtga mansublik, birdamlik tuyg'ularini joylaydi. Barchani yagona davlat ramzi sanalmish bayroq, gerb, madhiya kabi muqaddas timsollar singari bir yurtning sadoqatli farzandlari o'laroq birlashtiradi.

Shu ma'noda, o'zbek tili O'zbekistonda faqat bir emas, balki ikki ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy vazifani bajarmoqda, zalvarli va muazzam vazifalarni yelkasiga ortmoqlagan holda takomil yo'llaridan jadal odimlayotir.

Endilikda boshqa tillarda ta'lim olgan hamyurtlarimizni davlat tilini o'rganishga rag'batlantirish bo'yicha ham alohida mexanizmlar joriy etiladi. Xususan, ular bu borada maxsus sertifikatga ega bo'lsa, o'qish xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Bundan tashqari, o'zbek tilidan boshqa tillarga ixtisoslashtirilgan maktablarda davlat tilini o'qitish soatlari ko'paytiriladi. O'zbek tili bo'yicha ham xalqaro fan olimpiadasini o'tkazamiz. Olimpiadaning g'olib va sovrindorlari mamlakatimiz oliygohlarining o'zbek filologiyasi yo'nalishi bo'yicha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

Asrlar davomida insoniyat egallagan bilimlarning qaymog'i bo'lgan kitoblar inson shaxsini shakllantirishda benazir manbadir. Badiiy asarlar o'quvchiga badiiy zavq bag'ishlashi bilan birga, uning ongu qalbini boyitadi, ruhini yuksaltiradi.

Shu bois yurtimizda xalqimizning mutolaa madaniyatini kuchaytirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko'rilyapti. Yig'ilishda aytilganidek, bu boradagi ishlar izchil davom ettiriladi. Kelgusi yildan milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ko'p ming nusxalarda chop qilish va kutubxonalarga yetkazib berish choralari ko'riladi. Ijodiy buyurtmalar, muallif va tarjimonlarga qalam haqi ko'paytiriladi. Nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 5-yilga soliqlardan ozod etiladi. Tarjima san'atini rivojlantirish, mehnatni munosib rag'batlantirish uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis qilinadi. Bu — xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida boshlanayotgan yangi davr, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Xullas, bizning dunyo havasini keltiradigan buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimiz bor. Ona tuprog'imiz bag'ridagi boyliklar beqiyos. Nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk ma'naviyatimiz, adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi. Ma'naviy-ma'rifiy sohada Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar ijrosi bizni ana shu maqsadlarga yetaklaydi.

Buning uchun bugungi globallashgan zamonda har bir yurtdoshimiz atrofga teran nazar tashlab, bu ulug' niyatlarning amalga oshishi, jonajon Vatanimiz ravnaqi va istiqboli yo'lida yanada fidokorlik, jonkuyarlik namunalarini ko'rsatmog'i kerak.

*Dunyoga nazar sol…*
*Taloto'p aro*
*Dam kulga do'nmoqda, dam yonmoqda u.*
*Kunlari tunlarga aylanib qaro*
*Og'riqlar ichida to'lg'onmoqda y...*
*Zamondosh!*
*O'ylab boq!*
*Axir bor najot —*
*Gar bilmoq istasang, bir zum ko'z tashla.*
*Qizingga dars bersin nomusu sabot,*
*O'g'lingni ezgulik, ilmga boshla.*
*Unutma!*
*Bugundan go'zal saboq ol,*
*Aslida ravonmas, past-baland hayot,*
*Yaxshilikka yo'ldosh qalbga quloq sol,*
*Najot ko'nglingdadir, ko'nglingda najot!*

**O'tkir RAHMAT.**

# O'zbekiston tashabbusi asosida qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi

**xalqaro hamjamiyat ko'magida Markaziy Osiyo davlatlarining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha majburiyatlarini mustahkamlaydi**

1

**Li SZYUNXUA,
BMT Bosh kotibining iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari:**



— O'zbekiston Prezidenti va xalqini BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi bir ovozdan qabul qilingani bilan samimiy tabriklayman. Ushbu muhim rezolyutsiya ekologik muammolarga, jumladan, muzliklarni himoya etish, yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurashish, suv resurslaridan barqaror foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy masalalarni ilgari suradi.

Rezolyutsiya barqaror rivojlanishga kompleks yondashuvni rag'batlantiradi va mintaqaviy hamkorlikni dunyo oldida turgan umumiy muammolarni hal etishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonning ushbu tashabbusi odamlar birlashsa, amaliy harakatlarning uddasidan chiqish, barqaror, adolatli va xavfsiz dunyoni barpo etishda nimalarga erishish mumkinligining muhim namunasidir. Rezolyutsiya Markaziy Osiyo davlatlarining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, shu jumladan, xalqaro hamjamiyat ko'magida jamoaviy majburiyatlarini kuchaytiradi.

Bugun biz O'zbekiston Prezidenti va xalqi tashabbusini tantanali ravishda nishonlar ekanmiz, mamlakatingizning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi qat'iy intilishini samimiy qutlaymiz. BMT tizimi O'zbekistonning bu boradagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashda davom etadi.

Keling, barqaror va adolatli kelajak yo'lida umumiy sa'y-harakatlarimizni birlashtirib, hamjihatlikda harakat qilaylik.

**Verner OBERMAYER,
Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Nyu-Yorkdagi vakolatxonasi direktori:**



— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga xalqaro hamjamiyat e'tiborini yana bir bor Markaziy Osiyodagi ekologik muammolarga qaratgani uchun samimiy minnatdorlik bildiraman. Shuningdek, O'zbekiston xalqini o'tgan haftada BMT Bosh Assambleyasining keng qamrovli va aniq harakatlarga yo'naltirilgan rezolyutsiyasi muvaffaqiyatli qabul qilingani bilan chin yurakdan tabriklayman.

Dunyo aholisining deyarli yarmi iqlim o'zgarishining salbiy ta'siriga o'ta zaif bo'lgan hududlarda yashamoqda. Iqlim o'zgarishi tufayli haroratning ko'tarilishi cho'llanish va qurg'oqchilik darajasini oshirmoqda. So'nggi yigirma yil ichida 65 yoshdan oshgan odamlar orasida issiqlik tufayli o'lim darajasi 70 foizga ortdi.

Suv tanqisligi dunyo aholisining 40 foiziga ta'sir qilmoqda. 2030-yilga borib yana 230 milliondan ortiq kishilar ushbu tahdid ostida qoladi va ular boshqa hududlarga ko'chib ketishga majbur. Issiqlik, yuqumli kasalliklar tarqalishi, suv tanqisligining kuchayishi va oziq-ovqat xavfsizligiga putur yetkazayotgani sababli biz odamlar sog'lig'ini saqlashni ta'minlay ololmaymiz. Bu, ayniqsa, harorat o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'tarilayotgan Markaziy Osiyoda juda dolzarbdir.

Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan mazkur rezolyutsiyada Markaziy Osiyo, jumladan, Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolarni hal etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish va iqlim o'zgarishiga moslashish choralarini ko'rish bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarurligi alohida urg'ulangan.

Men Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ushbu muhim tashabbuslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashini tasdiqlayman.

**Filipp MARTINET,
Fransiyaning BMTdagi doimiy vakolatxonasining siyosiy masalalar bo'yicha katta maslahatchisi:**



— Avvalo, O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining yangi rezolyutsiyasi qabul qilinganidan katta taassurot va ilhom olganimni ta'kidlash joiz. Markaziy Osiyo yuzlashayotgan va duch keladigan ekologik muammolar yaqin mintaqaviy hamkorlikni taqozo etmoqda. Biz bunday hamkorlikni rag'batlantiramiz va mintaqadagi besh davlat o'zaro sa'y-harakatlarda birlashgani hamda bu yo'nalishdagi aloqalarni rivojlantirish maqsadida turli tadbir va forumlar o'tkazish niyatida ekanidan g'oyat mamnunmiz. Rezolyutsiyadagi o'zaro birdamlik va muhim tashabbuslar uchun O'zbekistonga yana bir bor samimiy minnatdorlik bildiraman. Biz dunyo ahlini BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha navbatdagi konferensiyalarigacha ushbu yo'nalishdagi majburiyatlarni yanada kuchaytirishga chaqiramiz.

**"Dunyo" AA.
Nyu-York**

Gabriela RAMOS:

# UNESCO O'zbekiston bilan o'z vakolatlari doirasida o'rnatilgan hamkorlikdan faxrlanadi

1

UNESCO O'zbekistonning sa'y-harakatlarini alohida qadrlaydi va o'zaro munosabatlarda erishilayotgan yutuqlar mazkur tuzilma rahbariyati tomonidan ham iliq kutib olinmoqda.

Jumladan, **UNESCO bosh direktorining ijtimoiy va gumanitar fanlar bo'yicha o'rinbosari Gabriela Ramos** "Dunyo" AA uchun bergan intervyusida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi yakunlari, shuningdek, O'zbekiston va ushbu tashkilot o'rtasidagi hamkorlikning holati hamda istiqbollari haqidagi fikrlarini bildirdi:

— Agar o'tgan yil davomida erishilgan muvaffaqiyatlar haqida gapiradigan bo'lsak, 2023-yil UNESCO va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni yanada kengaytirish nuqtayi nazaridan boy va samarali bo'ldi.

O'zbekiston UNESCOning juda muhim a'zosi, chunki siz va men madaniyat, ta'lim va ilm-fan sohalarida birgalikda targ'ib qiladigan boy qadriyatlarga egamiz.

Masalan, UNESCO qarorgohida bu yil buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini tantanali ravishda nishonladik. Sun'iy intellekt sohasida axloqni targ'ib qilish orqali ilmiy muloqotni rag'batlantirish maqsadida Abu Rayhon Beruniy nomidagi UNESCO — O'zbekiston xalqaro mukofotini ta'sis etish bo'yicha ishlar qizg'in ketmoqda. Chunki bu O'zbekiston bilan hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2021-yilda O'zbekiston bilan birgalikda ishga tushirilgan "Xiva jarayoni" platformasi doirasida biz Markaziy Osiyoda sun'iy intellekt sohasida axloqiy tavsiyalarni ilgari surish bo'yicha faol ish olib boryapmiz.

O'zbekiston erta yoshdagi bolalarga g'amxo'rlik va ta'lim, shuningdek, madaniy sohadagi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlashga katta hissa qo'shishda davom etmoqda.

Joriy yilda O'zbekistondan bir qancha yangi obyektlar va elementlar Umumjahon merosi hamda Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yxatiga, yurtingiz tarixiga oid bir qator arxiv va kitob fondlari esa "Jahon xotirasi" xalqaro reyestriga kiritildi.

Asosiy yutuq, albatta, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tarixiy tashabbusi UNESCO tomonidan ma'qullangani bo'ldi. Buning sharofati bilan barchamiz 2025-yilda Samarqandga Bosh konferensiyaning 43-sessiyasida ishtirok etish uchun tashrif buyurishga umid qilamiz. Biz buni intiqlik bilan kutyapmiz. Chunki UNESCOning uzoq vaqtdan beri asosiy tadbiri birinchi marta qarorgohidan tashqarida bo'lib o'tadi.

2000-yildan buyon Umumjahon madaniy merosi obyekti sanalgan Samarqand go'zalligidan bahramand bo'lish imkoniyati uchun minnatdorlik bildiraman.

Shu bilan birga, O'zbekiston UNESCO uchun naqadar muhim ekanini yana bir bor ta'kidlash joiz. Ajoyib mamlakatingiz doimo o'zaro hamjihatlik va do'stlik chorrahasi bo'lib xizmat qilib kelgan, shuningdek, tashkilot mandatini ilgari surishda bebaho yordam ko'rsatmoqda.

Fursatdan foydalanib, O'zbekiston xalqini kirib kelayotgan Yangi yil bilan UNESCO nomidan samimiy tabriklayman va 2024-yilda barcha ezgu niyatlari amalga oshishini tilayman.

UNESCO O'zbekiston bilan o'z vakolatlari doirasida o'rnatilgan hamkorlikdan faxrlanadi va kelgusida ham yangi kuch hamda g'ayrat bilan yutuqlar sari birgalikda odimlaydi.

**"Dunyo" AA.
Parij**

## Ma'naviyat

# IBROHIM G'AFUROV DEYDIKI...



Juda ko'hna bir kitobni o'qib o'tirar edim.

Ne-ne fikr imoratlari o'tar edi ko'z o'ngimdan.

Shu asno kitob varag'i orasidan yangi sahifani ochganimda uzun va qop-qora qosh tolasi tushdi tizzamga.

Ne zamonlar bo'lgan edi otamning o'lganiga.

Ne zamonlar bo'lgan edi otamni sog'inganimga.

Otamning qoshi to'kildi ko'hna kitob sahifasidan.

Sog'inganimni bildimi otam
qoshining bir qora tolasini jo'natdi menga.
Xabar ol, yolg'iz qo'yma, unutma, qosh axir ko'zning panohi bo'lar,
har dilning yurakda bir ohi bo'lar...
Ota, nomangizni oldim.
Ko'ksimga tegdi so'lim shabada.
So'ng avaylab joylab qo'ydim qoshingizni yana o'sha ko'hna kitob sahifasiga.
Umid qildim: mendan so'ng ham o'qirlar bu kitobni...
Sog'inganlar... Sog'inarlar...

* * *

Qadimgi faylasuflar inson dunyoga o'lgani keladi, yashagani keladi, deyishadi. Mening xulosam esa boshqacha: inson dunyoga sayqal berish uchun keladi...

* * *

Kitobga birov ermak, birov ovunchoq, birov bilim va birov hayotning hikoyasi deb qaraydi. Kitoblarda yolg'on gaplar yoziladi deb o'ylashadi. Yolg'onlikka yolg'on, lekin bir farqi kitoblarning yolg'oni rostdan yaxshi. Men kitob o'qish maqtanarli bir narsa deb bilmayman. Odam non yeyishi, suv ichishi, havo olishi bilan hech qachon maqtanmaydi-ku, to'g'rimi?

* * *

Olamlar bari, kavnu makonlar bari ilm bilan qamrab olingan va ilm bilan yaratilgan. Jumladan, odamzod, hayvonot va nabotot bari ilm bilan qamralgan. Ilmdan xoli hech narsa yo'q. Odamzod necha ming yillardan beri bor va necha ming yillardan beri ilm izlaydi. Ilmga intiladi. Ilmni Yer yuzidan, koinotdan va o'z-o'zining ichidan qidiradi. Ilm izlash — XXI asrning shu kunlarida ham najotkor g'oya. Bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki ilm haqiqatga yetish yo'li. Inson esa haqiqatsiz yasholmaydi.

* * *

Makonni tashlab ketar bo'lsang,
ayt, ketar oldingdan Segohni chalsinlar.
Segoh ketayotgan odamning qadamlarin ta'qib qiladi.
U yig'lanmagan yig'i.
To'kilmagan ko'z yosh.
Sen, mabodo, yangi makonga kirib borsang,
yangi makonga ilk qadam qo'yganingda, ayt,
Segohni chalsinlar.
Sen emas, avval Segoh qadam qo'ysin yangi makonga.
Do'st qoshiga suhbatga otlanyapsan —
avval tingla Segohni.
Qancha bog'larga kirding,
Izlab bording maqbarlarni,
qancha mozorlardan o'tding,
xotiralar qoldi baridan.
Sen xotiralaringni aytib berishdan oldin,
albatta, Segohni tingla.
Injiqlik bo'lib tuyulmasin senga —
Segoh har holda
sendan qariroqdir,
sendan donoroqdir.

* * *

Insoniyat ajralish va ajratilish g'oyasidan xalos bo'lsa, kelajakda — oltin asrlarda istiqomat qiladi. Ajratish, ajralish g'oyasi kuchlimi yo birlashish, birlik g'oyasimi? Insoniyat shu ikki savolga aniq javob berolsa va og'ishmay borsagina kelajak asrlarda bexavotir umrguzaronlik qiladi.

* * *

Alloh nurni yaratgan ekan va O'zi ham shu nur ichida ekan, kitob ham ilmlar, hissiyotlar, aqllarning nurnomasidir. Mening haqiqatim shuki, odam kitoblar olamiga sho'ng'imagunicha hech qachon sayqal topmaydi. Kitoblar inson hayotining xayrli pog'onalaridir.

* * *

Odam muhabbatsiz yashay olmaydi. Muhabbat bo'lmasa, har qanday mol-dunyo, obro'-e'tibor tatimaydi. Yosh o'tib muhabbat o'ladi, o'rniga izzat-ikrom keladi, deyishadi. Shunday bo'lishi mumkinmi? Muhabbat o'rnini izzat-ikrom bosa oladimi? Yo'q. Muhabbat o'lishi mumkin, agar uni o'ldirsangiz. Muhabbat yashnashi mumkin, agar uni yashnatsangiz.

* * *

Odamni tinglay bilish ham juda katta odamgarchilik. U yurak va ongning tarbiyasidan darak beradi.

# ORZU-UMIDLAR AYYOMI

*Yangi yil arafasida yurtimizning ko'ngilochar maskanlariyu keng ko'chalari, xiyobonlaru bog'lar o'zgacha joziba kasb etadi. Har tomonda turfa chiroqlar, turli-tuman o'yinchoqlarni bag'riga olgan archalar, tashvishlarini eski yilda qoldirishga hozirlanayotgan odamlarning sho'x-shodon kulgisi ko'zingizni yashnatib, bahridilingizni ochadi.*

**Shukuh**



Har yili yurtimizda Yangi yil bayramini ko'tarinki ruhda kutib olish yaxshi an'anaga aylangan. Ayni kunlarda ushbu shukuhli ayyomni yuqori saviyada nishonlash, xalqimizga quvnoq kayfiyat ulashish, bolajonlarning qishki ta'tilda maroqli dam olishlarini tashkil etish maqsadida katta tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Bu yil yurtimizning bosh archasi poytaxtdagi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi oldidagi maydonda o'rnatildi. Ertakmonand bezatilgan ushbu maydonda 28-dekabr — 8-yanvar kunlari Yangi yil bayrami tadbirlari, turli ko'n¬gilochar tomoshalar, konsert dasturlari bo'lib o'tadi.

Hozirgi kunda kutubxona oldida sahna tayyorlanmoqda, bayram ruhiga mos ravishda yasatilgan Yangi yil archasi atrofida odamlar gavjum. Kimdir farzandlari, yana kimdir uzog'u yaqindan kelgan mehmonlari, oila a'zolari, yaqinlari, do'stlari bilan tashrif buyurgan.

— Xudoga shukr, yurtimiz tinch, hayotimiz farovon, yaqinlarimiz yonimizda, sog'-omon, — deydi Bobur Rahimboyev. — Albatta, shulardan birortasi yo'q bo'lsa, na bayram, na bu quvonchli kunlar tatirdi. Bayramlar bayramlarga ulanayotgani bizning baxtimiz. Bugun duoga qo'l ochsak, albatta, xonadonlarimizda to'yu bayramlar bo'lishini tilaymiz. Mahobatli archaga qarab turib bugun tuyqus yoshligimni esladim, u paytlar bunday sharoitlar qayoqda deysiz... Bugunimizga shukr, ilohim, ko'z tegmasin!

Ma'lumotlarga ko'ra, poytaxtda bayram kunlari yana beshta asosiy archa bezatiladi. Ular — Xalqlar do'stligi va Xadra maydonlarida, Toshkent davlat sirki oldida, "Next" va "Compass" savdo-ko'ngilochar markazlari yaqinida va Algoritm dahasidagi "Roison Elektronics" korxonasi yonida o'rnatiladi.

Bundan tashqari, poytaxt tumanlarining aholi uchun qulay bo'lgan 17 ta hududida bayram archalari o'rnatilib, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etiladi. Qisqasi, yangi yilni xalqimiz, qolaversa, xorijlik sayyohlarning munosib kutib olishlari uchun barcha imkoniyat ishga solinmoqda.

— Biz anjuman bahonasida O'zbekistondamiz, yurtingizga ilk safarimiz bayramga to'g'ri kelgani bizni ikki karra sevintirdi, — deydi ozarbayjonlik mehmon, fuzuliyshunos olim Aziz og'a Najafov. — Yangi yilni qardosh xalqimiz go'zal nishonlar ekan, Toshkentning oydin ko'chalari yanada yorishgan, har tomonda bayramona kuy-qo'shiqlar, ayniqsa, bolalarning qiyqiriqlari shodiyonaga o'zgacha tarovat bag'ishlab turibdi. Nasib qilsa, keyingi gal oilamiz bilan kelamiz. Yangi yilingiz muborak bo'lsin, aziz o'zbekistonliklar!

Ta'kidlash lozimki, an'anaviy tarzda har yili Yangi yil bayrami oldidan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, ota-ona qarovisiz qolgan, shuningdek, ota-onalari Vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lganlar bolalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari uchun "Prezident archasi" tadbiri o'tkazib kelinadi.

Bu yil ham ushbu qiziqarli tadbirga puxta hozirlik ko'rilmoqda. 2023-yilgi "Prezident archasi" tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-noyabrdagi tegishli majlis bayoniga asosan, Mehribonlik uylari, oilaviy bolalar uylari, "SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasining bolalar mahallalari, bolalar uylari va nogironligi bo'lgan bolalar "Muruvvat" internat-uylari tarbiyalanuvchilari, mahallalarda istiqomat qilayotgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan o'g'il-qizlar, ota-onalari Vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan oilalarning 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan farzandlari hamda "Mehrli maktab" o'quvchilari uchun umumiy hisobda 11 mingta "Prezident sovg'asi" tayyorlandi.




Akmal MUHAMMADOV olgan suratlar.

"Prezident sovg'asi" tarkibiga davlatimiz rahbarining bolalarga yo'llagan Yangi yil bayrami tabrigi, 17 turdagi shirinliklar, 2 nomdagi kanselyariya mahsulotlari, smart soat, dars magnit taxtasi va boshqa sovg'alar kiritilgan. Shuningdek, 12 yoshdan katta 1 600 nafar tarbiyalanuvchining sovg'alari tarkibidan planshetlar ham joy olgan.

Ushbu orziqib kutilgan sovg'alar mamlakatimizning 10 ta hududiga, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlariga "Uzbekistan Airways" AJ samolyotlari, Sirdaryo, Jizzax, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahriga hududiy Davlat yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasining kuzatuvi ostida avtotransport vositalari orqali yetkaziladi.

"Prezident sovg'asi" bolajonlarga hududiy hokimliklar vakillari ishtirokida joriy yilning 29-30-dekabr kunlari tantanali tarzda topshiriladi.

**Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi").**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 21.25 Topshirildi — 08.00 1 2 3 4 5 6